

Turizm Sohasidada Standartlashtirishning Ahamiyati

Mamasoliev G'ayratbek Maxamadyusupovich¹

Annotasiya: Mazkur maqolada turizm sohasida standartlashtirishning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu maqolada turizm sohasida standartlashtirish bo'yicha vakolatli organlar va O'zbekistondagi standartlar toifasi, turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar turi va standartlari hamda xizmatlarni standartlashtirishning asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: turizm, standart, standartlashtirish, standartlashtirish obyekti, standartlashtirish mahsulot, standartlashtirish organlari.

Mahsulot sifatini ta'minlash muammosi zamonaviy dunyo uchun universal harakterga ega. Har qanday sanoatning rivojlanishida ko'p narsa uning qanchalik muvaffaqiyatli hal qilinishiga bog'liq. Shu bilan birga, sifat ko'rsatkichlari, shuningdek, sifatli mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolar har bir sohaga, shu jumladan, turizm sohasiga xosdir.

Hozirgi vaqtda sifat tushunchasi kategoriya sifatida normallashtirilgan va standartlar bilan belgilangan.

Standart tushunchasi inglizcha standard so'zidan olingan bo'lib, meyor, namuna, o'lcham degan ma'nolarni anglatadi.

Standart atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan:

1. O'ziga o'xshash boshqa obyektlarni taqqoslash uchun asos qilib olingan namuna, andoza, etalon.
2. Standartlashtirilayotgan obyektga nisbatan qo'llaniladigan meyorlar, qoidalar, talablar majmuini belgilovchi rasmiy meyoriy-texnik hujjat.²

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunida standart tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: standart — faoliyatning har xil turlariga yoki ularning natijalariga taalluqli bo'lgan, umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni, umumiy prinsiplarni yoki tavsiflarni belgilaydigan hamda muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan hujjat.³

Standartlashtirish – standartlarni belgilash hamda qo'llash jarayoni bo'lib, u normal ijodiy faoliyat bo'lib hisoblanadi. Standartlashtirish sifatning eng maqbul ko'rsatkichlarini va hokazolarni ishlab chiqishni hamda qat'iy belgalashni o'z ichiga oladi.

Standartlashtirish mahsulot (xizmat) sifatini boshqarishning tashkiliy hamda meyoriy asosi hisoblanib, u barcha meyorlarni standart, yo'riqnoma, mahsulotni asoslash uchun kerakli shartlar usuli kabi hujjatlarda aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunida standartlashtirish tushunchasiga - standartlashtirish — muayyan sohada tartibga solishning eng maqbul darajasiga erishishga qaratilgan, haqiqatda mavjud bo'lgan yoki kutilayotgan vazifalarga nisbatan umumiy va ko'p marta foydalanish uchun qoidalarni belgilaydigan faoliyat- deya ta'rif berilgan⁴.

¹ Andijon davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Тошкент. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20S.pdf

³ O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-sonli Qonuni. 4-modda. 03.11.2022 yil.

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'RQ-800-sonli Qonuni. 4-modda. 03.11.2022 yil.



Standartlashtirishdan asosiy maqsad mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

Standart vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan normalar majmuasini, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan qoida va talablarni belgilovchi normativ texnik hujjat bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, standartlar nafaqat moddiy obyekt (tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar, buyum namunalari), balki nor-malar, qoidalar, tashkiliy-metodik va umumtexnik harakterdagi obyektlar uchun ham ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat standartlash tizimi (DST) standartlar tuzish, izohlash va tarqatish jarayonlarini tartibga keltiradi. Bu borada O'zbekiston Standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart») olib borayotgan keng ko'lamli ishlarni alohida e'tirof qilish joizdir.

«O'zstandart» agentligi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning sifat darajasini belgilovchi, ko'rsatkichlar raqobatdoshligini ta'minlovchi, ishlab chiqaruvchilarga yetarli miqdorda axborotlar yetkazib beruvchi markaz hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotga o'tish munosabati bilan Xalqaro standartlashtirishning roli, ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish – ilmiy-texnika va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Ular xalqaro aloqalarni kengaytirishga, mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi. Hozirgi kunda jahonda 400 dan ortiq Xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlar mavjud (2000-yil). Standartlashtirish sohasida yirik xalqaro tashkilotlar BMTga qarashli Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEEKOON), standartlashtirish bo'yicha Xalqaro tashkilot (ISO) ishlab turibdi.

Mahsulot (xizmat) sifati darajasi, uning xususiyatlaridan standartlar talablariga mosligi tarzida aniqlanadi. Standartni boshqarish sohasida texnologiyalarni yaratish uchun asos bo'lib ISO – 9000 seriyali xalqaro standartlar hisoblanadi. Ular xalqaro miqyosda mahsulot va xizmatlar normalarini belgilashga mo'ljallan beradi.

Standart vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan normalar majmuasini, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan qoida va talablarni belgilovchi normativ texnik hujjat bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, standartlar nafaqat moddiy obyekt (tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar, buyum namunalari), balki nor-malar, qoidalar, tashkiliy-metodik va umumtexnik harakterdagi obyektlar uchun ham ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda turistik xizmatlarni loyihalashtirishda turistik- ekskursion xizmat ko'rsatish sohasida standartlashtirish obyektlari, standartlar majmuasining tuzilmasi va boshqa standartlashtirish bo'yicha hujjatlarning maqsadi va vazifasini belgilovchi standartlar mavjud. Menejerlar turistik xizmatlar uchun ishlab chiqiluvchi loyiha materiallari, korxona va turistik xizmat ko'rsatish obyektlari (mehmonxonalar, tur baza, marshrutlar va boshqalar) davlat ekologik ekspertizasidan o'tishi shart. Xizmatlar esa amaldagi qonunlar va normativ hujjatlardagi talablarga mos kelishi kerak. Turistik xizmatlarni loyihalashtirish turistik korxonalar tomonidan amalga oshirilishi yoki boshqa tashkilot tomonidan ham bajarilishi mumkin. Bu holda manfaatli bo'lgan korxona yoki tashkilot tashabbusi bilan shartnoma tuziladi.

10.1.1-jadval

Standartlashtirish bo'yicha vakolatli organlar va O'zbekistondagi standartlar toifasi

Standartlashtirish organlari		Standartlashtirishda qo'llaniladigan standartlar toifasi va normativ hujjatlar
Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatsiya bo'yicha O'zbekiston	Standartlashtirish	➤ xalqaro (davlatlar va mintaqalar bo'yicha) standartlar;
	bo'yicha	➤ sanoat turi standartlari;
	umumma'muriy va	➤ texnik standartlar, shartlar;
	yuridik vakolatlar	➤ korxona standartlari;



agentligi		➤ boshqa davlatlarning davlat standartlari; ➤ ma'muriy-hududiy standartlar; ➤ O'zbekistonda qo'llanuvchi ta'lim standartlari.
O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi	Turistik ahamiyatdagi obyektlar standartizatsiyasi	
Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	Atrof-muhit himoyasi va tabiiy resurslardan foydalanish standartlari Dori vositalarini ishlab chiqarishni amalga oshrish bo'yicha korxonalar va tibbiy maqsaddagi tovarlar standarti	
Boshqa sohadagi vazirliklar va idoralar	Tegishli iqtisodiy sohalar standartlari	

Xizmat ko'rsatishni loyihalashtirishni asosi – bu turistik xizmatlarning qisqa bayonidir, ya'ni bozorni tadqiq etish natijasida aniqlangan, buyurtmachi bilan kelishilgan va ijro etuvchi imko- niyatlarini e'tiborga olgan talablar majmuasidir. Shu asosda, u quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- xizmatlar tavsifi normalarining belgilanishi;
- turistlarga xizmat ko'rsatish jarayoni texnologiyasini belgilash;
- texnologik mahsulotlarni ishlab chiqish;
- sifat nazorati usullarini aniqlash;
- loyiha tahlili;
- loyihani tasdiqqa taqdim etish.

O'zbekistonning Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga intilishi munosabati bilan, standartlashtirish jarayoni sohalar, korxonalar va hududlarga yanada ko'proq dahldor bo'lmoqda. Yangi progressiv standartlarga o'tish turistik firmalarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki ularning ba'zilari haligacha eski texnologik vositalardan foydalanishmoqda, biroq jahon bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun unga rioya qilish kerak bo'ladi.

O'zbekistonda tashkiliy- huquqiy shakllaridan qat'i nazar, barcha turistik korxonalar tomoni- dan turistik xizmatlar sifatiga majburiy va tavsiya etiluvchi talablarni belgilovchi standart mavjud. Amaliyotda bu tizim turistning hayoti, sog'lig'i va mulkining xavfsizligini hamda atrof-muhitni qo'riqlashni ta'minlaydigan turistik xizmatlar sifatiga bo'lgan majburiy talablarini o'z ichiga oladi.

Shuni aytish kerakki, turistik xizmatlarga (ekskursiya, poxod, sayohat) va xizmat ko'rsatishi shartlariga bo'lgan talablar majburiy va tavsiyalanuvchilarga bo'linadi. Barcha turistik xizmatlarga majburiy bo'lgan talablar quyidagilar:

- hayot va sog'liq xavfsizligi;
- turist va ekskursantlar mulkining saqlanishi;
- atrof-muhit muhofazasi.

Barcha turistik xizmat turlari iste'molchilar sog'ligi, hayoti va mulki uchun xavfsizlik ta'minlangan bo'lishi kerak. Turistik xiz- matlar xavfsizligi normal sharoitda bo'lganidek, favqulodda holatlar (tabiiy ofat va boshqalar) da ham ta'minlanishi kerak. Turistik trassalar ekologik qulay va sanitar-epidemiologik sharoitlari yaxshi bo'lgan hududlarda joylashtirilishi lozim.



10.1.2-jadval

Turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar turi va standartlari

Bir turdagi xizmatlar	Umumiy talablarga doir standartlar
Turistik va ekskursion xizmatlarni amalga oshirish; Ekskursiya; Turistik safarlar; Reklama - axborot xizmatlari; Oziq-ovqat xizmatlari; Madaniy-ommaviy xizmatlar; Jismoniy-madaniy sog'lomlashtirish xizmatlari	belgilash xavfsizlik ijroning aniq va o'z vaqtida bo'lishi ergonomlilik estetiklik ekologik qulaylik kafolatlar va boshqalar

Xizmatlarni standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- xizmatlar va turistlarga xizmat ko'rsatish sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasini belgilash;
- xizmatlar turistlarga xizmat ko'rsatish va ularning nazorat usuli sifatiga o'sib borayotgan talablarni belgilash;
- xizmatlar xavfsizligi, aholi sog'ligini qo'riqlash, atrof-muhit himoyasi, ijroning aniq va o'z vaqtida bo'lishi, xizmat ko'rsatishning estetikligini ta'minlovchi talablarini o'rnatish;
- turistik xizmatlar sertifikatlashtirish bo'lgan talablarni belgilash;
- turistik korxonalar faoliyati boshqa turistik ekskursion xizmat ko'rsatishda qatnashuvchi korxonalar bog'liqligini ta'minlash;
- standartlashtirish sohasida terminlar va asosiy tushunchalarni aniqlashni va aholiga turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish sifatini boshqarishni belgilash.

Aholiga turistik-ekskursion xizmat ko'rsatishni standartlashtirish obyektlariga quyidagilar kiradi:

- turistik xizmatlar;
- turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish jarayoni.

O'z davstandart Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda xavfsizlikni, aholi sog'lig'i va hayotini, atrof-muhit himoyasi ijrosining aniq va o'z vaqtida bo'lishini, majburiy-umumiy talablarni, shuningdek, xizmat ko'rsatish turlariga tavsiya etuvchi talablarni o'rganadi. Ularning rasmiy qarashligidan qat'i nazar, barcha turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish korxonalari va tashkilotlari tomonidan amal qilinishi kerak. Shuningdek, aholiga turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi firmalar, qo'shma korxonalar va fuqarolarga ham tegishlidir. Aholiga turistik-ekskursion xizmat ko'rsatish sohasidagi standartlarning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

- asosiy standartlar;
- umumiy texnik standartlar;
- ishlab chiqarish jarayonlari (texnologik, boshqarishni tashkil etishni ta'minlovchi) standartlari;
- xizmatlar standarti.

Davlat darajasida qonunlar va standartlar orqali quyidagilar ta'minlanadi:

- turistik mahsulot iste'molchilarining hayoti, sog'ligi xavfsizligi;
- turistlar mulkining saqlanishi;
- iste'molchi mulkiga zarar yetkazishning oldini olish;
- atrof muhitni muhofaza etish;



➤ turistik xizmatning funksional belgilanishga, aniqlikka va o‘z vaqtida bajarilishiga mos kelishi.

Mohiyatiga ko‘ra standart sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlaydigan sharoit va usullarni belgilaydi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “TURIZM TO‘G‘RISIDA”gi Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-800-sonli Qonuni. 4-modda. 03.11.2022 yil.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев тахрири остида. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Тошкент.
https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20S.pdf
4. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. III.Султонов, Э.Шавқиев, З.Усмонов. “Туризм ва меҳмонхона хизматлари иқтисодиёти”. (Ўқув қўлланма).-Т.:”Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020.-386бет
6. Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich., Mamasidiqov Baxodir Abdubodiq o‘g‘li. Scientific basis of tourism development. International Journal For Multidisciplinary Research (IJFMR) Vol. 49 (2024): Miasto Przyszłości 1689-1694
7. Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich., Turgunbayeva Kamola Sherzodbek kizi. Tourism Factors in the Economy of Developing Countries. Journal of Ethics and Diversity in International Communication. e-ISSN: 2792-4017. Volume:2Issue: 9in Sep-2022: 57-61
8. Mamasoliyev Gayratbek1, Poziljanov Khumoyunmirzo2. The role of ecological tourism in the socio-economic life of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 22 Mar 2022

